TARIXIY-BADIIY MATNLARNING PRAGMALINGVISTIK TADQIQI MASALALARI

Qodirjonova Zohidaxon Akromjon qizi
Andijon davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixiy-badiiy matnlarning pragmalingvistik tahlili muammolari ko‘rib chiqilgan. Shuning, tarixiy-badiiy matnlarda asosiy o‘rganilishi kerak bo‘lgan jihatlar yoritilgan. Ilmiy asoslar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pragmalingvistik tahlil, tarixiy-badiiy matn, eskirgan leksika, pragmatik sema.*

KIRISH

Matn pragmatikasining o‘zbek tilshunosligidagi nazariy asoslari Sh.Safarov, M. Hakimov va A.Pardayevga tegishli deyish mumkin. Olimlarning izlanishlari nafaqa matn pragmatikasi, badiiy matn pragmatikasi uchun ham asosiy nazariy ma’lumotlarni bera oladi. Masalan, badiiy matn tahlilida nutqiy akt nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Uning asoschilari ingliz faylasufi J.Ostin va amerikalik olimlar J.Serl va G.Gris ushbu nazariyaning asoslarini ishlab chiqdilar. Ular birinchi marta fikrni aytish nafaqat ma’lumot uzatish, balki boshqa ko‘plab harakatlar (tabriklash, ishontirish, ogohlantirish va boshqalar) bo‘lishi mumkinligini ta'kidladilar.[14] O‘zbek tilshunosligida esa uning tahliliy jihatlarini to‘liq yoritib berishda Sh.Safarov katta hissa qo‘shgan.[11] Fonopragmatika, morfopragmatika, sematika va stilistika bilan munosabati, matnning pragmatikal belgilarini o‘rganish orqali pragmalingvistikadagi yana bir bo‘shliqni M.Hakimov to‘ldirdi.[6] Nazariy ma’lumotlarni sodda tilda tushuntirishi, diskurs tushunchasini keng qamrovli yoritishi, kommunikativ maqsad, baho, taktika, strategiya tushunchalarini keng qamrovda tahlil qilganligi bilan A.Pardayevning o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi ajralib turadi.[10] Ko‘p hollarda badiiy matn yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar bir yoqlamalik, ya’ni semantik yoki sintaktik qiyofasini faollashtirgan bo‘lsa-da, hozirgi davrda nutqiy faoliyatni, kommunikativ jarayonni kengroq qamrab oluvchi, uni muallif, o‘quvchi, asar tuzilmasi va jamiyat, tarixiy davr kabi komponentlar bilan uzviy bog‘lashga imkon beruvchi metodlar, ayniqsa pragmatik yondashuvlar ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishiga aylandi.[3]

Zamonaviy tilshunoslikda bunday tahlil usulining chuqurlashuvi natijasida badiiy matndagi estetikani, idrok jarayonini, tipik va atipik jihatlarni, matndagi adresatga (murojaat qilinuvchiga) xoslik va individual tafovutlarni kashf etishga imkoniyat ochildi. Chunki lisoniy jihatdan asarni tahlil qilar ekanmiz, unda nafaqat leksik, grammatik, stilistik shakllarni, balki ularning semantik dinamizmi, kommunikativ quvvati, turli vositalar orqali nutq subyektiga yetkaziladigan asosiy

g‘oyani, hissiy va psixologik nuqtalarni ham chuqur o‘rganish talab qilinadi. Shuni

alohida ta’kidlash kerakki, pragmatika badiiy matnga faqatgina nutqiy vosita, shakl va mazmun orasidagi o‘zaro munosabat sifatida emas, balki faol kommunikativ aloqani shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ham qaraydi. Shu sababli,

zamonaviy adabiy asarlarning aksariyati, ularning tahlilida pragmatik omillar, muallifning nutq quroli, shakllantirish metodlari, matnda yashiringan yoki ochiq ifodalangan g‘oya, obrazlarning kommunikativ xususiyatlari yetakchi rol o‘ynaydi.

Adabiy matn o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p qavatli mazmunga ega bo‘lib, unda asosiy voqea va holatlardan tashqari, o‘quvchiga yetkaziladigan tashviqot, targ‘ib, hissiy motivatsiyalar ham jamlangan bo‘ladi.[13] Badiiy matnda ishlatilgan har bir ifoda, har bir leksik birikma o‘zining nutqiy vazifasiga ega bo‘ladi. Ba’zida muallif tilga olmagan ma’no, nutqning tashqarida qolgan qatlamlari ham o‘quvchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita yetkaziladi. Bunday hollarda pragmatik yondashuv matnni chuqur tahlil qilishda, jumladan, ijtimoiy, madaniy, psixologik kontekstlarni, matn va o‘quvchi o‘rtasidagi interfaol aloqani, muallifning niyat va maqsadlarini anglashda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikda bunday tahlil usulining chuqurlashuvi natijasida badiiy matndagi estetikani, idrok jarayonini, tipik va atipik jihatlarni, matndagi adresatga (murojaat qilinuvchiga) xoslik va individual tafovutlarni kashf etishga imkoniyat ochildi.[1]

Har bir adabiy-badiiy asar, roman, hikoya yoki she’riy to‘plam muallifning ma’lum bir maqsad, niyat asosida yaratiladi. Bu maqsad nutq vositasida, matndagi turli semantik, stilistik va sintaktik vositalar orqali ifodalanadi. O‘quvchi bu vositalarni idrok etish, ular orqali matnga kirib borish, muallif bilan ruhiy va

intellektual aloqa o‘rnatish jarayonida ko‘plab pragmatik resurslar harakatga keladi.

Shu orqali matndagi tasvir, voqea, obraz o‘zining mukammal ifodasini topadi,

o‘quvchi tezda asar muhitiga moslasha oladi. Yana bir muhim jihat, badiiy matnlarda pragmatikaning o‘rni ta’kidlar, istaklar, o‘xshatishlar, baholashlar, ohang va intonatsiya vositalarida, matnning umumiy semantik strukturasi va energetikasida

namoyon bo‘ladi. Har bir nutq egasi o‘zining nutqiy maqsadiga erishishda faqatgina

informatsion bo‘laklarni emas, balki hissiy, estetik, baholi va motivatsion birliklarni

ham ishlatadi. Muallifning qahramonlarni yaratish, voqealarni joylashtirish, matnga

individual ruh bag‘ishlashdagi harakatlari, odatda, pragmatik jihatdan asoslangan

bo‘ladi. Bu esa matn va o‘quvchi o‘rtasida ko‘prik, mustahkam aloqa yaratadi.

Badiiy matn pragmalingvistik tahlili tarkibida tarixiy-badiiy matn tahlili tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ushbu sohada jahon tilshunosligida pragmalingvistik izlanishlar qatoridan alohida ajralib chiqqan.

Tarixiy-badiiy matn pragmalingvistik tahlilida qamrab olinishi kerak bo‘lgan jihatlar quyidagilar:

1. Eskirgan leksika tahlili;

Leksema til birligidir. Har bir tilning boyligi shu til birliklari yig‘indisi bilan o‘lchanadi. Har qanday birlik, falsafa nuqtayi nazaridan, o‘z shakli va o‘z mazmuniga ega bo‘ladi. Til birligi bo‘lgan leksemaning mazmuni semema deb nomlanadi. Leksema esa hamma vaqt ham bir sememaga ega emas, uni birdan ortiq holda ham kuzatiladi.

Leksemaning har bir sememasi ob’ yektiv olamdagi biror narsa, hodisa va voqelikning subyektda tushuncha ifodasidan iboratdir. [15]

Tarixiy-badiiy asarning davr muhitini ochib berishdagi eng birinchi muhim omili bu tarixiy so‘zlarning qo‘llanilish darajasi. Har bir so‘z bunday asarlarda alohida ma’no mundarijaga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Pragmatik tahlil jarayonida esa tarixiy so‘zlar orasida antonimlik, sinonimlik, omonimlik munosabatlarning kommunikativ maqsad ifodasidagi roli ochib berilishi mumkin.

2. Tarixiy iboralar;
3. Tarixiy izofalar;
4. Maqollar;
5. Hadislar;
6. Oyatlar;
7. Takrorlar;
8. Tarixiy grammatik shakllar;
9. Tarixiy bog‘lovchi vositalar;
10. Verbal vositalar;
11. Noverbal vositalar;
12. Qahramonlar portreti;
13. Tabiat tasvirlari;
14. So‘z turkumlari tahlili;
15. Tarixiy birliklarda denotativ va konnotativ ma’nolar;
16. Pragmatik semalarning hosil bo‘lishi: metafora, metanomiya, sinekdoxa, Ironiya [12] xodisalari tahlili. Obyektga bo‘lgan subyektiv munosabat faqatgina badiiy asarlar uchun emas, balki tarixiy-badiiy asarlar uchun ahamiyatlidir. Chunki yozuvchi uslubi tahlilning asosiy omili sanaladi. Taniqli rus tilshunosi N.G.Listvinov ta’kidlagani kabi emotsional bo‘yoqli leksika asar tilining jozibasi, uning til imkoniyatlarini ochishdagi rolini oshiradi. [9]

17. *Tarixiy-badiiy asarlarda tarjima masalasi* ham qiyosiy tilshunoslik,

Chog‘ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslikda keng ko‘lamli dolzarb mavzulardan biri bo‘la oladi.

Leksema sememasining pragmatik semasi ko‘pgina tilshunoslar tomonidan qayd etilgan va o‘rganilgan, bu haqda bir qancha fikrlar ham yuzaga kelgan. Tilning bu sohasi ko‘proq uslubiyat bilan bog‘li bo‘lganligi uchun, u haqda stilistikaga bag‘ishlan-gan adabiyotlarda keng to‘xtab o‘tilgan. Ayniqsa Yevropa til-shunosligida va yevropa tillariga bag‘ishlangan ishlarda bu ma-sala ko‘proq yoritilgan. [5] Rus tilshunosligida ham bu masalaga ma’lum darajada e’tibor berilganiga qaramay, monografiya yoki asarning yirik bobi holatidagi ishlar yo‘q, tilshunoslikka ki-rish, leksikologiyaga bag‘ishlangan ishlardagina bu haqda yo‘lma-yo‘l aytilgan fikrlar mavjud. [7]

18. Tarixiy-badiiy matnlarda modallik va zamon kategoriyasining namoyon bo‘lishi. [4]

Umumiy xulosa qilib aytganda, yuqoridagi har bir jihat tarixiy-badiiy matnning pragmalingvistik jihatlarini yoritishda alohida bir o‘rganiluvchi obyekt bo‘lishga arziydi. Chunki bunday asarlar bir vaqtda tilning o‘tmish qiyofasi va bugundagi ko‘rinishi qiyosiy tahlil qilishga asos bo‘la oladi. Shuningdek, asarning tili muallif

mahoratini, til boyligini va ifodalash uslubiyatini ochib berishda tarixiy-badiiy matnlarda ma’lum bir yo‘nalishlarni belgilab olish, umumiy tahlildan qochish va ilmiy izlanishlarda tor mavzularni aniqlab keng yortishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarova Sh. Badiiy matnning lisoniy tadqiqida pragmatikaning o‘rni // Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal. Volume 6 Issue 3 | October 2025. 305-311-bet.
2. Арутюнова Н. Предложение и его смысл. Логико-семантические проблемы. – Москва: Наука, 1976. – 382 с.
3. Ashurova D.U. Badiiy matn sinergetikasi // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2024. - 10-jild. - № 1 (54). - B. 39-59.
4. Boymirzayeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fan. dok. … diss. – Toshkent, 2010. 74-194.
5. Г.Паул. Принципы истории языка, М., 1960.
6. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари:Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Фарғона, 1996. – 165 б.
7. И.В.Арнольд. Лексикология современного английского язы-ка, М., 1959, 92-бет; Е.М. Галкина-Федорук, К.В.Гершкова, Н.М.Шанский, Современный русский язык, М., 1962,93-бет; Н.Г. Листвинов, Вопросы стилистики русского языка, М., 1965,23-бет; Н.С. Валгина, Д.Э. Розенталь, М.И. Фомина. В.В.Цепукевич. Сов-ременный русский язык, М., 1966, 37-бет; Н.М.Шанский. Лекси-кология современного русского языка, М., 1972, IЗI-бет.
8. Маслова А. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Флинта, 2010. 152 с. Почепцов Г. Прагматика текста. – Калинин, 1980. – 240 с. Почепцов О.Г. Основы прагматического описания предложения. Киев: Вищашкола, 1986. С.75.
9. Н.Г.Листвинов. Вопросы стилистики русского языка, М., 1965, 23-бет.
10. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand. 2013.
11. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари:Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Фарғона, 1996. – 165 б.
12. Tohirov Z. O‘zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda subyektiv munosbatning yuzaga chiqishi: Filol. fan. nomz. … diss. – Toshkent, 1994. 9.
13. Yo‘ldasheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol. fan. d-ri (DSc)… diss. -Qarshi, 2023. - 227 b.
14. Ван Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. – БГК им. И.А. Бодуэ де Куртенэ, 2000. – 308 с.
15. В.В. Виноградов. Основные типи лексических значений слова. ВЯ. 1953,5-сон; Е.М. Галкина-Федорук. Слова и понятие, М., 1956, 16-бет;